



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



BARQAROR HAYOT
xalqaro ijtimoiy-ma'rifat markazi

“ZAMONAVIY PSIXOLOGIYANING DOLZARB MUAMMOLARI”

mavzusida xalqaro miqyosda ilmiy-amaliy anjuman materiallari



“Zamonaviy psixologiyaning dolzarb muammolari” mavzusida xalqaro miqyosda ilmiy-amaliy anjuman materiallari
660 b.

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri E.Karimova tahriri ostida chop etildi.

Bosh muharrir:

Z. Raxmanov – Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti rektori v.v.b., iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Mas’ul muharrir:

G. Ibragimova – Pedagogika-psixologiya va inklyuziv ta’lim fakulteti dekani, pedagogika fanlari doktori, professor

Tahrir hay’ati:

N. Sh. Umarova – psixologiya fanlari doktori, professor.

V. M. Karimova – psixologiya fanlari doktori, professor.

Z. T. Nishanova – psixologiya fanlari doktori, professor.

D. S. Karshiyeva – psixologiya fanlari doktori, professor.

Nashrga tayyorlovchi:

R. Ashurov – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

To‘plamda keltirilgan maqolalarning mazmuni va keltirilgan statistik ma’lumotlarga mualliflar mas’ul.

Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti 2025-yil 10-noyabrda bo‘lib o‘tgan ilmiy texnik kengashda muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan

CONTENTS

1-Sho'ba. Zamonaviy psixologiyaning nazariy-metodologik asoslari va muammolari.....	15
YANGI O'ZBEKISTONDA PSIXOLOGIK XIZMAT: DAVLAT SIYOSATI, AMALIY MEXANIZMLARI VA BARQAROR RIVOJLANISH YO'LI	16
Hilola Umarova	
ZAMONAVIY PSIXOLOGIYANING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA SOG'LOM PSIXOLOGIK MUHITNI SHAKLLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	19
Karimova E'zoxon Gapirjonovna	
RAHBAR XODIMLARGA PSIXOLOGIK XIZMAT KO'RSATISHNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI	23
Qo'ng'irotboy Avezimbetovich Sharipov	
"DIGITAL TWIN" TEXNOLOGIYASI VA INNOVATSION BOSHQARUV PARADIGMASI	26
Raxmanov Zafar Yashinovich	
АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОВРЕМЕННОЙ ПСИХОЛОГИИ В УЗБЕКИСТАНЕ И ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ.....	28
Гайрат Бахрамович Шаумаров	
MACHINE PSYCHOLOGY: BRIDGING HUMAN LEARNING PRINCIPLES AND ARTIFICIAL GENERAL INTELLIGENCE DEVELOPMENT	31
Farkhod Alisherovich Alisherov, Nigora Ruzikulova Shukhratovna	
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA INKLYUZIVLIK SIYOSATINI AMALGA OSHIRISHDA RAHBARLIK FAOLIYATINING PSIXOLOGIK VA TASHKILIY ASOSLARI	39
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna	
TALABALARNING ILMIY INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	44
Abdullayeva Barno Sayfuddinovna	
ONANING O'ZI HAQIDAGI TASAVVURLARINING FARZAND MUNOSABATIGA ALOQADORLIK XUSUSIYATLARI	49
Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna	
AVLODLAR KONTEKSTIDA MOLIYAVIY XULQ-ATVOR: PUL PSIXOLOGIYASINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK TAHLILI	53
Umarova Navbahor Shokirovna	
EMOTIONAL BURNOUT AND STRESS AS PSYCHOLOGICAL RISKS OF A NOTARY'S PROFESSIONAL ACTIVITY	56
Arystanbek Aiymszhan, Aitysheva Aigul Mukataevna	
UYUSHMAGAN YOSHLARNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK MOSLASHGANLIGINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	59
Atabayeva Nargis Batirovna	
MUAMMOLI PEDAGOGIK VAZIYATLARGA O'QITUVCHI QAROR QABUL QILISHINING DIFFERENSIAL XUSUSIYATLARI	61
P.S.Ergashev	
SPORT BOSHQARUVI SOHASIDAGI DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARIDA OILAVIY VA KASBIY TOLERANTLIK.....	64
O.E. Hayitov	
O'QUVCHILARDA KOGNITIV JARAYONLARINING RIVOJLANISHI INTELLEKT SHAKLLANISHINING MUHIM OMILI SIFATIDA.....	67
Ashurov Ramzidin Ramazonovich	

INKLYUZIV PSIXOLOGIYA KONSEPSIYASI: IMKONIYATI CHEKLANGAN SHAXSLARNING PSIXOLOGIK RIVOJLANISHINI O'RGANISHDA ZAMONAVIY METODOLOGIK YONDASHUVLAR.....	70
Abdullayeva Yulduz Muftillo qizi	
OILAVIY MUNOSABATLAR TRANSFORMATSIYASI JARAYONLARIDA YOSH OILA VAKILLARI XULQIDAGI AYRIM MUAMMOLAR.....	72
V.M. KARIMOVA	
UMUMIY O'RTA TA'LIM TIZIMIDAGI PSIXOLOGIK XIZMATNI TAKOMILLASHTIRISH ZARURATI MASALALARI	75
Akramova Feruza Akmalovna	
TALABALARDA ALTRUIZM NAMOYON BO'LISHIGA SHAXS XUSUSIYATLARINING TA'SIRI	77
Kamolova Nilufar Davir qizi	
PEDAGOGLARDA KASBIY STRESS VA UNING OQIBATLARI	82
Karshiyeva Dilafuz Suyunovna	
SINERGETIK TAFAKKUR — ZAMONAVIY TA'LIM JARAYONINING INNOVATSION YO'NALISHI.....	84
Masharipova Farog'at Matrasulovna	
OILADA MA'NAVIY, AXLOQIY VA MADANIY MALAKALARNI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI	88
Mirabdullayeva Shoiraxon Abdulkayevna	
OLIY TA'LIM MUASSASASI IMIJINI BELGILOVCHI ASOSIY BIXEVIORISTIK KOMPONENTNING ILMIY-NAZARIY TAHLILI	91
Mirashirova Nargiza Anvarovna	
SPORTCHILAR PSIXOFIZIOLOGIK HOLATINI BAHOLASHDA TEPPING-TEST METODIKASI	94
S.U.Nazarov	
ILK O'SPIRINLARDA HAVAS KASB TANLASH MOTIVI SIFATIDA.....	98
Nishanova Zamira Taskayevna	
ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПРИМЕНЕНИЯ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ПСИХОТЕРАПЕВТИЧЕСКОЙ ПРАКТИКЕ.....	101
Останов Шухрат Шарифович	
TALABALAR O'ZINI O'ZI FAOLLASHTIRISHI MUAMMOSINING MAHALLIY MUHITDA TADQIQ ETILISHI.....	106
Qurbonboyev Azimbek Nazirboy o'g'li	
VOYAGA YETMAGANLAR O'RTASIDA NAZORATSIZLIK VA HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASI MASALALARI	109
Qodirov Obid Safarovich, Raxmatov Faxriddin Umarovich	
PSIXOLOGLARNING PROFESSIONAL TAFAKKURI.....	114
Ra'no Ismaylova	
O'ZBEKISTON VA JAHON MAMLAKATLARIDAGI OILAVIY AJRALISHLARNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARIDAGI O'ZIGA XOSLIKLARNING EMPIRIK TAHLILI	118
Ro'ziqulov Faxriddin Rasulovich	
SHAXS NAZARIYASIGA MAHALLIY PSIXOLOGLAR TOMONIDAN KOGNITIV YONDASHUV	121
Tursunov Lutfulla Sayfullayevich	
BO'LAJAK MUTAXASSISLARINING KASBIY RIVOJLANISHIGA QARATILGAN ILMIY TADQIQOTLAR TAXLILI.....	123
Tuychiyeva Saodat Melikuziyevna	
TA'LIM MENEJMENTIDA SHAXSLARARO MUNOSABATLAR - MUVAFFAQIYATLI BOSHQARUVNING ASOSIY OMILI SIFATIDA	126
Umarova Navbahor Shokirovna, Jalolova Nafisa O'ktam qizi	
TALABALARDA RUHIY SALOMATLIKNI MUSTAHKAMLASHDA STRESSGA BARDOSHLILIK VA EMOTSIONAL INTELLEKTNING ROLI.....	128
Xajiyeva Iroda Adambayevna	

ZAMONAVIY GLOBAL MUAMMOLARDA ALTRUIZMNING ROLI	131
Xatamova Ferangiz Ibodullojeva	
QUROLLI TO'QNASHUVLARDAN OLIB KELINGAN BOLALARNI PSIXOLOGIK REABILITATSIYA QILISH MUAMMOLARI	134
S.R.Yuldashev	
ОСОБЕННОСТИ ПРОЯВЛЕНИЯ МЫСЛИТЕЛЬНЫХ ОПЕРАЦИЙ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА	137
Алимова Гулчехра Кабелевна	
О'QUVCHILARDA MUVAFFAQIYAT MOTIVATSIYASINI KUCHAYTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	139
Karimov Sherzod Abdurasulovich	
HARBIY XIZMATCHILAR OILALARIDAGI INQIROZLARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	142
Sh.S.Kurbanova	
AUDITORLIK QOBILIYATI RAHBAR KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGI KO'RSATKICHI SIFATIDA	145
Xolmurodova Dilnoza Xolmurodovna	
САМОРЕГУЛЯЦИЯ У СТУДЕНТОВ КАК ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ ФЕНОМЕН.....	149
Махмудова Д.А., Махманова К. Д.	
СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ ЛИЧНОСТИ В СОВРЕМЕННОМ ОБЩЕСТВЕ.....	151
Султанова Амина Анваровна, Дjon Муминова Дильфуза	
ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ БЛАГОПОЛУЧИЕ СТУДЕНТОВ С РАЗНЫМ УРОВНЕМ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ НАПРАВЛЕННОСТИ	154
Тиллашайхова Хосият Азаматовна	
2-Sho'ba. Zamonaviy shaxs rivojlanishining ijtimoiy-psixologi muammolari	159
ВЛИЯНИЕ ИНТЕНСИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ГАДЖЕТОВ НА ФОРМИРОВАНИЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ЗАЩИТ У ПОДРОСТКОВ	160
Е.Г.Алимова	
ZAMONAVIY SHAXS RIVOJLANISHIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING TA'SIRI	163
Abdinazarova Bibixonim Rashid qizi	
INKLYUZIV TA'LIM TIZIMIDA O'QUVCHILARNING PSIXOLOGIK MOSLASHUV JARAYONINI QO'LLAB-QUVVATLASH: SAMARALI PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR	166
Abdullayeva Yulduz Muftillo qizi, Giyazova Zuhro Sattorovna	
ZAMONAVIY BOSHQARUV TIZIMLARIDA QAROR QABUL QILISH SAMARADORLIGI	169
Umarova Navbahor Shokirovna, Artikov Samandar Arzikulovich	
IJTIMOY PSIXOLOGIK TADQIQOTLARDA OILA VA OILAVIY QADRIYATLARNING O'RGANILGANLIK HOLATI	172
Abibullaeva Perdegul Ongarbaevna	
OILAVIY JANJALLAR NATIJASIDA YUZAGA KELUVCHI STRESS VA DEPRESSIV HOLATLARNING PSIXODIAGNOSTIKASI.....	174
Boboyeva Feruza Azimjonovna	
ZAMONAVIY O'SMIR SHAXSINING EMOTSIONAL INTELLEKTI RIVOJLANISHIDA IJTIMOY OMILLARNING ROLI.....	178
Ergashev Dilshod Tirkash o'g'li	
PSYCHOLOGICAL MECHANISMS OF DIGITAL INFORMATION USE THAT CONTRIBUTE TO THE EROSION OF SOCIAL NORMS IN THE MINDS OF YOUNG PEOPLE	180
Ganiev Maksudjon Najimovich	
ZAMONAVIY SHAXS RIVOJLANISHINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK MUAMMOLARI	184
Gulnafar Abdullayeva	

RUHIY SALOMATLIKNI SAQLASHDA PSIXOLOGIK OMILLARNING AHAMIYATI.....	187
Hasanova Dilshoda Avazbek qizi	
EMOTSIONAL INTELLEKT - ZAMONAVIY SHAXS RIVOJLANISHINING IJTIMOY – PSIXOLOGIK MUAMMOSI SIFATIDA.....	190
Ismailova Nilufar Baxadirovna	
OILALARDA INTERNETGA TOBELIKNING BUGUNGI KUNDAGI HOLATI.....	193
Kushakova Nargiza Islambayevna, Ergasheva Sarvinov Shavqiddin qizi	
AKADEMIK PROKRASTINATSIYANI O'RGANISH BO'YICHA XORIJIY OLIMLAR TAHLILI	196
Mardiyeva Shaxnoza Amirovna	
STEAM TA'LIM VOSITASIDA O'QUVCHILARNING KREATIV QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI	199
Matkarimova Nilufar	
MAKTABGACHA YOSHDA BOLANING MUVAFFAQIYATLI IJTIMOYILASHUVI MEZONLARI	203
Norbosheva Maqsuda Achilovna	
DEVIANT XULQ-ATVORLI O'SMIR QIZLARDA HIMOYA MEXANIZMLARINING IJTIMOYILASHUVGA TA'SIRI	206
Parpiyeva Shaxnoza	
PSIXOLOGIYADA O'ZINI O'ZI FAOLLASHTIRISH FENOMENIGA NISBATAN ILMIY YONDASHUVLAR.....	209
Qurbonboyev Azimbek Nazirboy o'g'li, Istamburiyev Muhammadali Abdulazizovich	
VELOSIPED SPORT TURI BILAN SHUG'ULLANUVCHILARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	212
Raxmonova Go'zal Bobir qizi	
SOCIO-PSYCHOLOGICAL CONSEQUENCES OF CYBERBULLYING ON ADOLESCENTS' INTERPERSONAL COMMUNICATION	215
Salomov Shamsiddin Sabokhiddin ugli	
RUHIY SALOMATLIKNI QO'LLAB-QUVVATLASH ORQALI BO'LAJAK LOGOPEDLARNING INKLYUZIV FAOLIYATGA PSIXOLOGIK TAYYORGARLIGINI OSHIRISH	219
Sharifova Maxliyo Zarif qizi	
TALABALARDA TA'LIM JARAYONIGA MOSLASHISHNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	222
Ubaydullayev Nuriddin Toxir o'g'li	
PEDAGOGIK JAMOALARDA PROJECT MANAGEMENT METODLARINING JAMOAVIY MOTIVATSIYAGA TA'SIRI.....	225
Umarova Navbahor Shokirovna, Ashurov Muhammad Zokir o'g'li	
AYOLLARDA KASB VA OILA MUVOZANATINI TA'MINLASHNING PSIXOLOGIK OMILLARI	227
Zuxra Mansurxonova	
ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ СПОСОБЫ ВЫЯВЛЕНИЯ КРИМИНАЛЬНОГО ПОВЕДЕНИЯ В ПОДРОСТКОВОМ ВОЗРАСТЕ	230
Пардаева Умида Мухтар қизи	
PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE LIFE POSITION OF UNORGANIZED YOUTH.....	234
Atabayeva Nargis Batirovna, Alimjonova Durdona Yunusjon qizi	
YOSHLARNI OTA-ONALIK MAS'ULIYATIGA TAYYORLASH - PSIXOLOGIYANING DOLZARB MUAMMOSI SIFATIDA.....	238
Bilolova Zamira Baxtiyarovna	
OTA-ONA VA FARZAND MUNOSABATLARINI TADQIQ ETISHNING NAZARIY JIHATLARI.....	241
D.U.Abdullayeva, I.X.Panjiyeva	
SHAXS IJTIMOY MOSLASHUVIGA TA'SIR ETUVCHI PSIXOLOGIK OMILLARNING O'ZIGA XOSLIGI	244
Dusboyev Asliddin Turgunovich	
PSYCHOLINGUISTIC FOUNDATIONS OF SOCIOLINGUISTIC COMPETENCE AND ITS STRUCTURAL COMPONENTS.....	247
G.A.Valiyeva	

YOSH OILALARNING MUSTAHKAMLIGIGA ZAMONAVIY AXBOROT VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING TA'SIRI.....	250
Kushakova Nargiza Islambaevna	
TALABALARDA IJTIMOY-PSIXOLOGIK KOMPETENTLIK SHAKLLANISHINING DINAMIK XUSUSIYATLARI.....	253
Nazarova Malohat Axmedovna	
SOCIO-PSYCHOLOGICAL CONSEQUENCES OF CYBERBULLYING ON ADOLESCENTS' INTERPERSONAL COMMUNICATION	255
Salomov Shamsiddin Sabokhiddin ugli	
OTA-ONA VA FARZAND MUNOSABATLARINI BARQARORLASHTIRISHDA AFILIATSIYA MOTIVINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	259
Samatova Sevara G'ayratovna	
GENDER STEREOTIPLARI - QABUL QILINGAN ME'YOR VA QOIDALARGA XULQ-ATVORINI MOSLASHTIRISH.....	263
Saribayeva Umida Sattarovna	
DINIY MUTAASSIBLIK, EKSTREMIZM VA TERRORCHILIKNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	266
Sobirov Jamoliddin, Nazarov A.S.	
O'QUVCHI YOSHLARNING O'ZARO MUNOSABATLARIDA TEAM BUILDING TA'SIRI VA AHAMIYATI.....	267
Turayev Nurmuhhammad Alibek	
O'SMIRLARDA DEVIANT XULQNING KONATIV ASPEKTLARI BO'YICHA PSIXODIAGNOSTIK TAHLIL (HUDUDIIY VA GENDER FARQLARI MISOLIDA)	269
Turayeva Gulchehra Urayimovna	
TALABALAR IJTIMOY FAOLLIGINI OSHIRISHNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK JIHATLARI	273
Umarov Saidnemat Burxanovich	
O'SMIRLIK DAVRIDA DEVIANT XULQ-ATVOR NAMOYON BO'LISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	275
Umarova Navbahor Shakirovna, Xalilova Sarvinoz Qodirali qizi	
TA'LIM MUASSASALARIDA BOSHQARISHDA KOGNITIV MENEJMENT YANGI MODEL SIFATIDA	278
Umarova Navbahor Shokirovna, Sadinova Marjona Akmal qizi	
SPORTCHILAR OILASIDAGI SIBLINGLAR MUNOSABATLARINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	281
G.H.Usmonova 281	
YOSHLAR PSIXOLOGIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA QADRIYATLAR TIZIMI VA IJTIMOY-PSIXOLOGIK MEKANIZMLARNING O'ZARO TA'SIRI: NAZARIY ASOSLAR VA EMPIRIK TAHLIL.....	283
X.A. Bobanov	
KIBERIJTIMOYLAHV IJTIMOY PSIXOLOGIK HODISA SIFATIDA.....	287
Yuldashev S.R., Muhiddinova M.N	
MILLIY VA DINIY URF-ODAT VA AN'ANALARDA AXLOQ NORMALARINING MUJASSAMLASHGANLIGI.....	289
D.Sh.Yuldashova, Miraliyeva Zulayxo Abdurauf qizi, Xidirova Gulhayo Muhiddin qizi	
РАЗВИТИЕ КОММУНИКАТИВНЫХ НАВЫКОВ У СТУДЕНТОВ-ПСИХОЛОГОВ В СОВРЕМЕННОМ ОБЩЕСТВЕ	292
АскарOVA Гулрух, Ашурова Анастасия	
КОММУНИКАТИВНАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ КАК ФАКТОР ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО СТАНОВЛЕНИЯ ПЕДАГОГА-ПСИХОЛОГА.....	296
АскарOVA Гулрух, Рахимова Робиябону	
ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ОБРАЗА «Я» У ПОДРОСТКОВ.....	300
Махмудова Диларом Ахмадовна, Сафаев Музаффар Зафар угли	
СЕМЕЙНАЯ СИНЕРГИЯ КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ “Я-КОНЦЕПЦИИ” В ПОДРОСТКОВОМ ВОЗРАСТЕ	303
Одилова Наира Гулямовна	

3-Sho'ba. Yosh va pedagogik psixologiya: ta'lim-tarbiya jarayonidagi muammolar	307
TA'LIM MUASSASALARIDA PSIXOLOGIK KONTRAKTNI MUSTAHKAMLASH UCHUN TASHKILIY-PSIXOLOGIK INTERVENSIYALAR	308
Umarova Navbahor Shokirovna, Bayzaqova Madina Ibragimovna	
TA'LIM OLIH JARAYONIDA STRESSGA BARQARORLIK NAMOYON BO'LISHINING YOSH PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	312
N.Z.Ismoilova, M.K.Ismoilova	
BOLALARDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING PSIXOLOGIK TA'SIRI	315
Aliyeva Kamola Saidnegmatovna, Tulqunova Barnooy Behzodjon qizi	
PEDAGOGLARDA KASBIY STRESSNING NAMOYON BO'LISH XUSUSIYATLARI	317
Boymirzayeva Nafisaxon Baxodir qizi	
O'ZBEKISTONDA STEAM TA'LIM TEXNOLOGIYASINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI	321
G.M.Qurbonova	
PSYCHOLOGICAL MECHANISMS OF DIGITAL INFORMATION USE THAT CONTRIBUTE TO THE EROSION OF SOCIAL NORMS IN THE MINDS OF YOUNG PEOPLE	324
Ganiev Maksudjon Najimovich	
TALABALARDA PROKRASTINATSIYA DARAJASINI KAMAYTIRISH VA OLDINI OLIHNING NAZARIY TAHLILI	328
Ismailov Sanjarbek Sherzod o'g'li	
O'SMIRLARDA DEVIANT XULQ SHAKLLANISHINING OTA-ONA MUNOSABATLARI BILAN BOG'LIQLIGI	331
Mo'minova Dilrabo Murodillayevna	
O'SMIRLIK DAVRIDA PSIXIK RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI	334
N.Z.Ismoilova, S.S.Berdiyeva, H.T.Baxriddinova	
ZO'RAVONLIKKA UCHRAGAN O'SMIRLAR ORASIDA COPING STRATEGIYALARINING SHAKLLANISHIGA IJTIMOIIY QO'LLAB-QUVVATLASH OMILLARINING TA'SIRI	337
Nishanova Zamira Taskarayevna, Komilova Komila Inomjon qizi	
O'SMIRLARNI AGRESSIV XULQ-ATVOR FENOMENINI PSIXOLOGIK JIHATLARINI O'RGANISH	339
Norqulova Dildora Shavkat qizi	
OLIIY TALIM PEDAGOGLARDA FRUSTRATSION TOLERANTLIKNI NAMOYON BOLISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	342
Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li	
TALABALAR O'ZINI O'ZI FAOLLASHTIRISHI MUAMMOSINING MAHALLIIY MUHITDA TADQIQ ETILISHI	345
Qurbonboyev Azimbek Nazirboy o'g'li	
TALABALARDA TADQIQOTCHILIK QOBILYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	348
Saidakbarova Nigora	
O'SMIRLIK DAVRIDA DEVIANT XULQNING SHAKLLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR	351
Sattarova Shahnoza Qo'chqarovna, Erkinjonova Raximaxon Baxtiyor qizi	
TA'LIM TASHKILOTLARIDA "WELL-BEING MANAGEMENT" TIZIMINI JORII ETISH: IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK YONDASHUV DOIRASIDAGI TAHLIL	353
Umarova Navbahor Shokirovna, Muminov Temurbek Uralbaevich	
GLOBALLASHUV DAVRIDA O'SMIRLARNING HAYOTIDA PSIXOLOGIYANING AHAMIYATI	356
Xolmuratova Mahbuba Maxmudovna, Mannonov Hamid Xolmurod o'g'li, Isroilova Sevinch Sobirjon qizi	
ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ КОПИНГ-СТРАТЕГИЙ ПЕДАГОГОВ В СТРЕССОВЫХ СИТУАЦИЯХ	359
Аскарова Гулрух Оринбасаровна, Халматова Мумтоза Зафаржон кизи	

ВЛИЯНИЕ ФОРМИРОВАНИЯ ПОЗНАВАТЕЛЬНЫХ ПРОЦЕССОВ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА НА МЕЖЛИЧНОСТНЫЕ ОТНОШЕНИЯ.....	363
Лутфуллаева И.А.	
RIVOJLANGAN XORIYIY MAMLAKATLAR TA'LIM TIZIMIDA MAKTAB DIREKTORLARINING BOSHQARUV MADANIYATI.....	365
Abdulxayeva M.B.	
INNOVATSION TALIM TIZIMIDA TALABALARNI KREATIV TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI.....	369
Masharipova Saidah Rahimovna, Jiyonboeva Sadokat Shonazarovna	
FORMATION OF SOCIO-COMMUNICATIVE SKILLS IN STUDENTS THROUGH BILINGUISTICS BASED ON AN INTEGRATIVE APPROACH.....	372
Najmiddinova Gulnoza Odilovna	
O'QITISH JARAYONIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI.....	376
Safarova Dilnoza Kuchkarovna, Kasimova Dildora Xusanovna	
ZAMONAVIY SHAXS RIVOJLANISHINING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK MUAMMOLARI	379
Saidakbarova Nigora Abduraxim qizi, Saydiraxmonova Durdona Abror qizi	
PEDAGOGIYALARDA KREATIVLIKNI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI	382
Sh.D.Ablakulov	
PSYCHOLOGICAL BASES OF POSITIVE PSYCHOLOGY AND POSITIVITY IN PEDAGOGICAL ACTIVITY	385
Shakhnoza Sattarova Kochkarovna	
PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS OF PROFESSIONAL ADAPTATION	388
Shodiyeva Rayhon Saydullayevna	
YOSH VA PEDAGOGIK PSIXOLOGIYA: TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDAGI MUAMMOLAR.....	391
Tuqboyeva Dilshoda Zaynievna, Saliddinova Nilufar Lochin qizi	
O'ZBEKISTON OLIY TA'LIM DASTURLARINI XALQARO AKKREDITATSIYADAN O'TKAZISH TAJRIBASI.....	393
Tursunov Tajimurad Mirsaidovich, Berdiqulov Ravshan Shavkatovich	
PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA PEDAGOGIKANING ILMIY VA AMALIY SOHASI SIFATIDA	396
Umarova Malika Xisabidinovna, Xolboboyeva M.A.	
TA'LIM MUASSASALARIDA LIDERLIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI.....	399
Umarova Navbahor Shokirovna, Sobirova Shahlo Saminjonovna	
O'QUV MOTIVATSIYASI MUAMMOSI XORIY PSIXOLOGIYASIDA TADQIQOTLAR PREDMETI SIFATIDA.....	402
D.Sh.Yuldashova	
ПРИМЕНЕНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ОБУЧЕНИИ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ НАУК.....	405
Алиева Камола Саиднегматовна	
ФОРМИРОВАНИЕ КОГНИТИВНОЙ АКТИВНОСТИ КАК ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ НАУЧНОГО ИНТЕЛЛЕКТА ПЕДАГОГА.....	408
Анварова Хуснора Давронбек кизи	
ЗНАЧЕНИЕ И РОЛЬ АРТ-ТЕРАПИИ В РАБОТЕ С ДЕТЬМИ	411
Асанова Гузаль Мухарамовна, Нуруллаев Адхамбек	
ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ СОВЛАДАЮЩЕГО ПОВЕДЕНИЯ У МОЛОДЕЖИ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ	414
Аскарва Гулрух Оринбасаровна	
ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ФРУСТРАЦИОННОЙ ТОЛЕРАНТНОСТИ ПЕДАГОГОВ.....	418
Аскарва Гулрух Оринбасаровна, Рустамова Мубина Эркин кизи	

10

O'SPIRINLARNING IJTIMOYIY TARMOQLARDAGI MULOQOT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK JIHATLARI.....	478
Salomov Shamsiddin Saboxiddin o'g'li, Yaxshiboyeva Ruxshona Husniddin qizi, Alimjonova Durdona Yunusjon qizi	
MOSLASHUVCHAN XULQ-ATVOR XUSUSIYATI, IFODALANISH MUAMMOLARI.....	482
Sh.B.Qurbanova	
KONCHILIK VA QAZIB OLISH SANOATI SOHASIDA PSIXOLOGIK SALOMATLIKNI QO'LLAB-QUVVATLASH TIZIMI	487
Sh.U. Turobova	
SHAXS VAQTINI IDROK ETISH VA BOSHQARISHNING TO'RT USULI	491
Solayev Og'abek Ilhombek o'g'li	
AYBDORLIK HISSINING NAMOYON BO'LISHI: XORIY OLIMLARI TADQIQOTLARIDA YORITILISH	494
Sultanova Saida Muhiddin qizi	
EDUKOLOGIYA VA KOMMUNIKATSIYANING KESISHGAN NUQTALARI: METODOLOGIK QARASHLAR TAHLILI.....	496
To'g'onboyeva Qizlarxon Ikromjon qizi, Ruzmetova Xilola Abdusharipovna	
ZAMONAVIY SHAXS RIVOJLANISHINING IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK MUAMMOLAR.....	501
Tuqboeva Dilshoda Zaynievna, Mardonova Mardona Farhodovna	
CORRECTION OF ANXIETY IN CHILDREN.....	503
Umarova M.Kh., Sabirova N. I.	
PEDAGOGIK DIAGNOSTIKANING MAQSADI VA SHAXS RIVOJLANISHIDAGI O'RNI	505
Umarova Malika Xisabidinovna, Abdurasulova Ra'no Saloxiddinovna	
VIRTUAL MUZEYLAR VA ULARNING TARBIVAVIY IMKONIYATLARI	508
Voxidova N.X., Yusupova M. U.	
O'SMIR YOSHIDAGI O'QUVCHILAR SAMARALI MULOQATIDA O'QITUVCHILARNING KOMMUNIKATIV SIFATLARI NAMOYON BO'LISHI.....	510
Xalmuratova Dilaram Abdikarimovna, Saydazimova Ziyoda Baxtiyor qizi, Nurmuhammedova Mohidil Nodir qizi	
O'SMIRLARNING PUL HAQIDAGI IJTIMOYIY TASAVVURLARI SHAKLLANISHIDA ETNOPSIXOLOGIK QADRIYATLAR VA MADANIY IDENTIFIKATSIYA OMILLARINING O'ZARO TA'SIRI	512
Xolmuratova Mahbuba Maxmudovna	
INSON PSIXIKASI TASHQI MUHIT VA ICHKI HOLAT O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIR NATIJASIDA SHAKLLANISHI	515
Xolmurotova Mahbuba Mahmudovna, Ergashova Shaxinabonu Boboqulovna, Safarova Lobar Alisherovna	
ОТКЛАДЫВАНИЕ ДЕЛ КАК ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ЯВЛЕНИЕ: МЕХАНИЗМЫ И ПРИЧИНЫ ПРОКРАСТИНАЦИИ	518
Асанова Гузаль Мухарамовна, Ганибекова Ситора	
ДЕВИАНТНОЕ ПОВЕДЕНИЕ У ПОДРОСТКОВ	521
Аскарова Гулрух Оринбасаровна, Шапранова Милана Павловна	
МОТИВАЦИОННЫЕ ОСОБЕННОСТИ ОСУЖДЕННЫХ К ТРУДОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И ОБУЧЕНИЮ В ПЕНИТЕНЦИАРНОЙ СИСТЕМЕ	525
М.А.Сайдуллаева	
5-Sho'ba. Shaxsning ruhiy salomatligi va salomatlik psixologiyasining dolzarb masalalari	529
O'SMIRLIK DAVRIDAGI BOLALARDA AGRESSIYANING NAMOYON BO'LISHI VA UNI BARTARAF ETISH USULLARI.....	530
Jalilova S.X., Aloyeva F., G'aybullaeva A.	
TA'LIM MUASSASALARIDA HR-MENEJMENT TIZIMINI JORIY ETISHNING SAMARADORLIGI.....	533
Umarova Navbahor Shokirovna, Bekmuratova Kamola Xasanovna	
BOLALARNI ZO'RAVONLIKDAN HIMOYA QILISH MEXANIZMLARI.....	535
Abbosova Uzrobonu Erkin qizi	

AUTIZM SPEKTRI BUZILISHI BO'LGAN MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA VIDEOMODELLASHTIRISHNING IJTIMOY KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI.....	538
Atabayeva Dilrabo Ixtiyor qizi	
GLOBAL O'ZGARISHLAR FONIDA KASBIY STRESS.....	543
Bog'bekova Dilnoza Shonazarovna	
GIPERTONIYA BILAN OG'RIGAN BEMORLARDA STRESSNI BOSHQARISHNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI	546
Eshchanova Nasiba Matnazarovna	
SHAXSNING RUHIY SALOMATLIGI VA SALOMATLIK PSIXOLOGIYASINING DOLZARB MASALALARI	549
Inogamova Shaxzoda Raximovna	
NEUROPROTECTIVE PROPERTIES OF PROPOFOL AND SEVOFLURAN: POSSIBILITIES OF PREVENTING THE DEVELOPMENT OF DYSFUNCTION IN COGNITIVE PROCESSES	553
Karimova G. Kh., Khodjimurodova M. Yu.	
YETUKLIK DAVRIDA INSULT TASHXISLI BEMORLAR BILAN PSIXOKORREKSION ISH OLIB BORISHNING DASTURIY ASOSLARI.....	556
L.U.Atajanova	
SHAXS RUHIY SALOMATLIGINING PSIXOLOGIK VA IJTIMOY DETERMINANTLARI.....	558
N.A.Saidakbarova, Karimova Gulnoza	
GIPERTONIYA KASALLIGIDA BEMORLARDA NARKOZDAN SO'NG XOTIRANI O'ZGARISHI.....	561
Karimova Gulchehra Xamidullayevna, Axmatova Diyora Donyor qizi, Ulug'babayeva Soliha G'ayratjon qizi	
ZO'RAVONLIKKA UCHRAGAN AYOLLAR BILAN PSIXOLOGIK MASLAHAT TASHKIL ETISH TAMOYILLARI.....	564
Nazarova Muharram Yunus qizi	
SHAXS RIVOJLANISHI VA SALOMATLIGINI ASRASHDA IJTIMOY TARMOQLARNING O'RNI.....	567
O.M. Zaripov	
BULLING VA ZO'RAVONLIK HOLATLARINING PSIXOLOGIK, IJTIMOY VA PEDAGOGIK OMILLARI	569
Qarshiyeva Dilafruz, Sattorova Mohinur Sherali qizi	
MAHALLIY NARKOZ PAYTIDA TAFAKKURNING YO'QOLMASLIGI.....	572
Karimova Gulchehra Xamidullayevna, Nizomova Munisa Amriddinova, Raximova Shaxnoza Ravshanovna	
SHAXSNING RUHIY SALOMATLIGI VA SALOMATLIK PSIXOLOGIYASINING DOLZARB MASALALARI	575
Pulatova Gulnoza Murodilovna, Umrzaqova Gulzoda Abdurahmon qizi	
NEVROTIK BEMORLARDA XISSIY O'ZGARISHLAR	578
Karimova Gulchehra Xamidullayevna, Ostonayeva Novbaxor Mamaraimovna, Inomova Odina Abdulvohid qizi	
COVID-19 PANDEMIYASINING INSON RUHIYATIGA TA'RISI.....	581
Qadirova Shahnoza Saidabdullayevna	
NARKOZDAN SO'NG BEMORLARDA XOTIRANI TIKLANISHI.....	584
Karimova Gulchehra Xamidullayevna, Shukurova Nigora Quدراتila qizi	
NUTQIDA KAMCHILIGI BO'LGAN BOLALAR BILAN OLIB BORILADIGAN PSIXOKORREKSION ISHLAR TIZIMI	587
S.A.Mamatisayeva	
OPERATSIYADAN SO'NG SEZGI JARAYONLARINING TIKLANISHI.....	590
Karimova Gulchehra Xamidullayevna, Tojiyeva Go'zal Karimjonovna, Ollamova Nargiza Hamdam qizi	
TA'LIM MUASSASALARIDA BOSHQARUV TIZIMINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA “DIGITAL TWIN” (RAQAMLI EGIZAK) TEXNOLOGIYASI ASOSIDA MODELLASHTIRISHNING ILMIY-AMALIY ASOSLARI.....	593
Umarova Navbahor Shokirovna, Gaymnazarov Odiljon Kurbanovich	

BOLALIKDAGI PSIXOLOGIK JAROHATLARNING O'SMIR SHAXSIY IDENTIFIKATSIYASI SHAKLLANISHIGA TA'SIRI: RETROSPEKTIV TAHLIL ASOSIDAGI YONDASHUV.....	596
Xudayberganova Roziya Nurniyazovna	
BOLALARDA NARKOZDAN SO'NG SEZGINI YUQORI BO'LISHI	599
Karimova Gulchehra Xamidullayevna, Zakirova Sadoqat Kudaybergenovna, Yangiboyev Zokir Tohir o'g'li	
НЕВРОЗЫ У ДЕТЕЙ: ПРИЧИНЫ И СИМПТОМЫ.....	602
Абдурахимов Дониёр Абдусаидович	
INVESTIGATION OF THE RECOVERY OF COGNITIVE PROCESSES AND MEMORY FUNCTIONS AFTER GENERAL ANESTHESIA THROUGH NEUROPSYCHOLOGICAL AND PHYSIOLOGICAL MEASUREMENTS.....	605
Karimova Gulchexra Khamidullayevna	
ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ СОПРОВОЖДЕНИЕ И ПОВЫШЕНИЕ КАЧЕСТВА ЖИЗНИ СЕМЬИ В УСЛОВИЯХ БОЛЕЗНИ РЕБЁНКА.....	608
Асанова Гузаль Мухарамовна	
NARKOZDAN SO'NG UYQU BUZILISHLARI	612
Karimova Gulchexra Xamidullayevna, Kilichova Gulnoza Bobomurotova, Xalikova Shaxzoda Radjabovna	
ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ДЕТСКОГО АУТИЗМА: ФАКТОРЫ, ПРОЯВЛЕНИЯ, ПРОБЛЕМЫ.....	616
Асрарханова Эътибор Абдувахаб қизи	
БЕССОННИЦА И ПСИХОЛОГИЯ: ВЫЗОВЫ И ЦИФРОВЫЕ РЕШЕНИЯ (с включением проекта «Веб-приложение для людей, страдающих бессонницей»).....	620
Туракулова И. Х., Делеверханов С. А.	
ILK O'SPIRINLARDA STRESSNI KELTIRIB CHIQRUVCHI OMILLAR HAQIDAGI TASAVVURLARNING O'ZIGA XOSLIGI	623
N.Z.Ismoilova	
STRESSGA BARDOSHLILIK – SHAXS RUHIY SALOMATLIGINING ASOSI SIFATIDA	626
Ruzmatova Nigina Shotilla qizi	
O'SMIRLIK DAVRIDA XULQIY OG'ISHLARNI KORREKSIYALASH USULLARI.....	629
To'raboyev Azamat Muxamadullayevich	
SCIENTIFIC APPROACHES TO THE FORMATION OF STRESS RESISTANCE	632
Tuychiyeva Shakhlo Shavkatovna	
TALABALARDA RUHIY SALOMATLIKNI MUSTAHKAMLASHDA STRESSGA BARDOSHLILIK VA EMOTSIONAL INTELLEKTNING ROLI.....	634
Xajiyeva Iroda Adambayevna	
MASS-MEDIANI TA'SIRI OSTIDAGI O'Z JONIGA QASD QILISH: VERTER SINDROMI PSIXOLOGIYASI TAHLILI.....	637
Xudoyberganova Sharofat G'ofurjon qizi	
NERV KASALLIKLARDA BEMORLARDA HISSIY O'ZGARISHLARI.....	641
Xujamova Ruhshona G'olib qizi	
СУИЦИДАЛЬНОЕ ПОВЕДЕНИЕ У ДЕВУШЕК-ПОДРОСТКОВ.....	643
Аскарова Гулрух Оринбасаровна, Абдуллина Аделина Маратовна	
СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ И ТЕХНОЛОГИИ В СУДЕБНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ЭКСПЕРТИЗЕ	647
Мухтарова Азиза Эркиновна	
INTROVERT VA EKSTROVERT SHAXSLARNING INGLIZ TILINI O'ZLASHTIRISHDAGI PSIXOLOGIK FARQLARI.....	650
Konratbaeva Ayjamal Bazarbaevna, Ochilova Xurshida Bahromovna	
BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING TANQIDIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK MEKANIZMLARI	652
Konratbaeva Ayjamal Bazarbaevna, Yusupova Xursanoy Fazliddin qizi	
МЕНЕДЖМЕНТ ИММЕРСИВНОЙ ИНКЛЮЗИВНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЫ	655
Оманова Гулноза Абдиназаровна	

KO'P MILLATLI TA'LIM MUASSASALARIDA YETAKCHILIK USHLUBLARINING ETNOPSIXOLOGIK JIHATLARI	658
Umarova Navbahor Shokirovna, G'ayratova Malohat O'tkir qizi	
TA'LIM TASHKILOTLARIDA QAROR QABUL QILISH JARAYONIDA BIXEVIORIAL MENEJMENT NAZARIYASINING MOHIYATI.....	660
Umarova Navbahor Shokirovna, Sangirova Nargiza Yuldashevna	

TALABALARDA RUHIY SALOMATLIKNI MUSTAHKAMLASHDA STRESSGA BARDOSHLILIK VA EMOTSIONAL INTELLEKTNING ROLI

Xajiyeva Iroda Adambayevna

Urganch RANCH texnologiya universiteti
professori v.b., psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Annotatsiya: Mazkur maqolada talabalarda ruhiy salomatlikni mustahkamlashda stressga bardoshlilik va emotsional intellektning roli ilmiy asosda tahlil etiladi. Stressga bardoshlilik shaxsning psixologik moslashuvchanligi va qiyinchiliklarni yengish qobiliyatini oshiruvchi muhim omil sifatida qaraladi. Emotsional intellekt esa hissiy holatlarni anglash, boshqarish va samarali kommunikatsiya qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. O'rganishlar natijasi ushbu ikki omil ruhiy farovonlik darajasini oshirishda o'zaro bog'liq holda namoyon bo'lishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: ruhiy salomatlik, stressga bardoshlilik, emotsional intellekt, psixologik moslashuvchanlik, emotsional boshqaruv, psixoprofilaktika, talabalik davri.

Abstract: This article scientifically examines the role of stress resilience and emotional intelligence in enhancing students' mental health. Stress resilience is considered an essential factor that increases psychological adaptability and the ability to cope with difficulties. Emotional intelligence contributes to the development of skills in recognizing and managing emotions, as well as effective communication. The research results indicate an interrelation between these components and the level of psychological well-being.

Key words: mental health, stress resilience, emotional intelligence, psychological adaptability, emotional regulation, psychoprophylaxis, student period.

Аннотация: В статье научно анализируется роль стрессоустойчивости и эмоционального интеллекта в укреплении психического здоровья студентов. Стрессоустойчивость рассматривается как важный фактор повышения психологической адаптивности и способности справляться с трудностями. Эмоциональный интеллект способствует развитию навыков осознания и управления эмоциями, а также эффективной коммуникации. Результаты исследования показывают взаимосвязь этих двух компонентов с уровнем психологического благополучия.

Ключевые слова: психическое здоровье, стрессоустойчивость, эмоциональный интеллект, психологическая адаптивность, эмоциональная регуляция, психопрофилактика, студенческий возраст.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim jarayonida talabalarning ruhiy salomatligini ta'minlash muhim psixologik va ijtimoiy vazifa sifatida e'tirof etilmoqda. Oliy ta'lim muassasalarida o'qish jarayoni akademik bosim, moslashuv muammolari, ijtimoiy munosabatlar va shaxsiy rivojlanish bilan bog'liq turli stress omillarini yuzaga keltiradi. Bunday sharoitda stressga bardoshlilik talabalarning turli qiyinchiliklarga moslasha olish qobiliyatini belgilovchi asosiy psixologik kompetensiyalardan biri bo'lib, ruhiy barqarorlikni saqlashda hal qiluvchi o'rin tutadi. Shu bilan birga, emotsional intellekt shaxsning o'z his-tuyg'ularini anglash, nazorat qilish hamda boshqalar bilan samarali muloqot olib borish jarayonlarini boshqaruvchi muhim omildir. Ilmiy tadqiqotlar ushbu ikki psixologik resurs talabalarning ruhiy farovonlik darajasini oshirishda o'zaro uzviy bog'liq holda ta'sir ko'rsatishini ko'rsatmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy psixologik tadqiqotlarda stressga bardoshlilik (resilience) va emotsional intellekt (EI) talabalarning ruhiy salomatligini ta'minlovchi yetakchi psixologik resurslar sifatida talqin etilmoqda. S. Maddi

va M. Kobasa [5,28] tomonidan ta'riflangan stressga bardoshlilik konsepsiyasi shaxsning stressli vaziyatlarda psixologik moslashuvchanligi, o'z hayoti ustidan nazoratni his qilishi va muammolarga ijobiy qarash strategiyalari bilan bog'liqdir. Ularning fikricha, yuqori stressga bardoshlilik darajasi tashqi salbiy ta'sirlar fonida ruhiy izdan chiqishning oldini oladi va adaptatsion salohiyatni oshiradi. G. Salovey va P. Mayer [2,45] tomonidan ilgari surilgan emotsional intellekt nazariyasi esa shaxsning o'zi va boshqalar his-tuyg'ularini anglash, boshqarish hamda konstruktiv ijtimoiy o'zaro ta'sirni amalga oshirish qobiliyatini ifodalaydi. D. Goleman [1,79] ushbu nazariyani kengaytirib, ElNi kasbiy muvaffaqiyat va ruhiy farovonlikning muhim omili sifatida asoslab bergan. Oliy ta'lim muassasalari talabalari o'quv yuklamasi, kasbiy tanlov bosimlari, ijtimoiy moslashishdagi qiyinchiliklar va shaxslararo munosabatlar bilan bog'liq stress omillariga tez-tez duch keladilar [7,98]. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, stressga bardoshli talabalarda depressiv holatlar, xavotir, charchoq sindromi kabi salbiy psixologik jarayonlar kamroq uchraydi [4,121]. Shuningdek, emotsional intellekti yuqori bo'lgan talabalarda stressni konstruktiv boshqarish, konfliktlarni bartaraf etish, kommunikativ kompetensiyalar va sog'lom ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimlarini shakllantirish ko'rsatkichlari yuqori bo'lishi aniqlangan [8,58]. El tarkibidagi empatiya, emotsional moslashuvchanlik va o'z-o'zini regulatsiya qilish fazilatlarini ruhiy salomatlik uchun psixoprotektiv omillar sifatida namoyon bo'ladi [3,69]. O'zbekiston kontekstida ham talabalar psixologik farovonligini ta'minlash, stress omillarini boshqarish va emotsional madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar soni ortib bormoqda. Xususan, psixologik xizmatlarni optimallashtirish, emotsional intellektni rivojlantiruvchi treninglar, stress bilan kurashuvning kognitiv-behavioral strategiyalari bo'yicha tadqiqotlar samarali natijalar bermoqda [13,23]. Jahon tajribasiga ko'ra, stressga bardoshlilik va emotsional intellektning integrativ rivoji talabalarning psixologik xavfsizligini mustahkamlash, akademik motivatsiyasini oshirish va sog'lom shaxs sifatida shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bu imkoniyatlar oliy ta'limda profilaktik psixologik dasturlarni tashkil etish, trening va konsalting faoliyatlarini keng joriy qilish orqali amalga oshirilishi mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur o'rganishimizning metodologik asosi talabalarning ruhiy salomatligiga ta'sir etuvchi psixologik omillarni tizimli o'rganishga qaratilgan bo'lib, u quyidagi yondashuvlarga tayangan: Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv – talabaning individual psixologik xususiyatlari va emotsional ehtiyojlarini hisobga olish[12]; Kognitiv-behavioral konsepsiya – stressni baholash va unga moslashish xatti-harakatlari[6]; Pozitiv psixologiya paradigmasi – shaxsning kuchli tomonlarini rivojlantirish orqali ruhiy salomatlikni qo'llab-quvvatlash[11]; Resilience nazariyasi – stressga bardoshlilikni psixoprotektiv resurs sifatida baholash; Emotsional intellekt modeli – emotsiyalarni anglash va boshqarish kompetensiyalarining ahamiyati. Metodologik yondashuvlar integratsiyasi talabalarning psixologik farovonlik omillarini kompleks tahlil qilish imkonini beradi.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, talabalarning ruhiy salomatligiga ta'sir etuvchi asosiy psixologik omillar — bu ularning stressga bardoshlilik va emotsional intellekt darajasidir. Stressga bardoshlilik shaxsning salbiy tashqi omillar ta'sirida ruhiy izdan chiqmasdan moslasha olish qobiliyatini belgilaydi. Emotsional intellekt esa his-tuyg'ularni anglash, boshqarish, konstruktiv ijtimoiy muloqot yuritish orqali psixologik farovonlikni shakllantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotda talabalarning ma'lum bir qismida ruhiy salomatlikning zaiflashuvi, emotsional o'zini boshqarish mexanizmlarining yetarli darajada shakllanmagani, stress omillarining yuqoriligi qayd etildi. Bu esa oliy ta'lim jarayonida psixologik yordam va profilaktik tadbirlarni kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.

Shunday qilib, stressga bardoshlilik va emotsional intellektni rivojlantirish ruhiy barqarorlik, professionallik va shaxs sifatida barkamollikni ta'minlovchi yetakchi omillar ekanligi ilmiy jihatdan tasdiqlandi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Ta'lim muassasalari uchun: Talabalarda emotsiyalarni boshqarish, konfliktlarni konstruktiv hal etish, stressni yengish ko'nikmalariga qaratilgan psixologik treninglarni tizimli ravishda tashkil etish; universitetlar qoshida faoliyat yuritayotgan psixologik xizmatlar profilaktik va konsalting faoliyatlarini kengaytirish; psixologik xavfsiz muhit yaratish; dars jarayonlarida pozitiv psixologiya va kommunikativ kompetensiyalar elementlari integratsiya qilish.

2. Talabalar uchun: stressni boshqarishning kognitiv-behavioral strategiyalaridan foydalanish (masalan, muammo yechimi, vaqtni boshqarish); o'z-o'zini anglash va emotsional regulatsiya bo'yicha refleksiv mashqlarni muntazam qo'llash; jismoniy faoliyat, meditatsiya, sport va ijodiy faoliyat orqali psixoprofilaktik yondashuvlarni kuchaytirish; ijtimoiy qo'llab-quvvatlovchi guruhlar bilan faol muloqot qilish.

3. Psixologik xizmatlar uchun: Emotsional intellektni rivojlantirish bo'yicha maxsus trening dasturlari ishlab chiqish; “Yuqori xavf guruhidagi” talabalar bilan individual psixologik ishni yo'lga qo'yish; Psixologik monitoring orqali talaba salomatligi dinamik kuzatish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Гоулман Д. Эмоциональный интеллект / пер. с англ. — М.: АСТ, 2019. — 478 с.
2. Salovey & Mayer. Эмоциональный интеллект: концептуальные основы и перспективы исследования // Психологический журнал. — 1990. — №5. — С. 11–26.
3. Bar-On R. The Bar-On model of emotional-social intelligence (ESI) // Psicothema. — 2006. — Vol. 18. — P. 13–25.
4. Connor K.M., Davidson J.R.T. Development of a new resilience scale (CD-RISC) // Depression and Anxiety. — 2003. — Vol. 18(2). — P. 76–82.
5. Maddi S.R., Kobasa S.C. The Hardy Personality: Toward a Social Psychology of Stress and Health. — Chicago: Rand McNally, 1979. — 245 p.
6. Lazarus R.S., Folkman S. Stress, Appraisal and Coping. — New York: Springer, 1984. — 456 p.
7. Misra R., McKean M. Academic stress of college students and its relation to anxiety, time management, and leisure satisfaction // American Journal of Health Studies. — 2000. — Vol. 16(1). — P. 41–51.
8. Petrides K.V., Pita R., Kokkinaki F. The location of trait emotional intelligence in personality factor space // British Journal of Psychology. — 2007. — Vol. 98. — P. 273–289.
9. Goldberg D. Manual of the General Health Questionnaire. — Windsor: NFER Publishing, 1972. — 129 p.
10. Cohen S., Kamarck T., Mermelstein R. A global measure of perceived stress // Journal of Health and Social Behavior. — 1983. — Vol. 24(4). — P. 385–396.
11. Селигман М. Позитивная психология / пер. с англ. — СПб.: Питер, 2017. — 368 с.
12. Rogers C. On Becoming a Person. — Boston: Houghton Mifflin, 1961. — 340 p.
13. Raximova Z. Talabalarda stressga bardoshlilikni shakllantirish omillari // Oliy ta'lim muammolari. — 2021. — №4. — B. 102–108.

